

**TA'LIMDA ZAMONAVIY TRENDLAR:  
XORIJIY TILLAR VA XALQARO IQTISODIYOT**

<sup>1</sup>To'rayeva Gulzebo G'ayrat qizi,

<sup>2</sup>Qarshiboyeva Maftuna Umed qizi,

<sup>3</sup>Nuriddinov Sanjar Yo'lchi qizi,

<sup>4</sup>Davronova Mohlaroyim Akmalovna

<sup>1,2,3,4</sup>Termiz davlat Pedagogika instituti "Xorijiy til va adabiyoti:nemis tili "  
ta 'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7370125>

**Annotatsiya:** Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

**Kalit so'zlar:** tyutor, advayzer, fasilitator, moderator, tendensiya, kompetensiya.

Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda o'rta ta'lim maktablarining faoliyatini takomillashtirish yo'lida pedagogik oliy o'quv yurtlari akademik litsey, kasb -hunar kollejlari maktablariga malakali kadrlarni milliy istiqlol g'oyasiga sodiq yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni yanada yaxshilash muammosini qo'yimoqda. Bu esa hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan holda emas, balki ayni vaqtda buyuk insoniy fazilatlariga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga katta e'tibor qilishni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi bo'lajak o'qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor ta'kidlab bermoqda.

O'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etishning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayonidagi pedagogik texnologiya usullari asosida dars o'tishning ilmiy-nazariy asoslarini, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariyati hamda amaliyoti bo'yicha bilimli etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashdir. Chunki hozirgi zamon o'qituvchisi hayotimizda yuz berayotgan tub o'zgarishning asosiy

ishtirokchilaridan biri bo'lib, u har tomonlama etuk, chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis, Vatanni va xalqiga sodiq, pedagogik mahorat va layoqatiga ega bilgan jamiyatdagi hamda kasb vazifalarini yaxshi bilgan shaxs bo'lishi zarur. AQSHda o'qituvchi masalasi o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoning echim yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni utadqiqotchi yoki maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi.

Global o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiyaga extiyoj ortib boradi. Chunki hayot o'zgarish sur'atlari tezlashadi. Bu bir tomondan, turli xalqlar hayot soxalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makoni kengayadi. Turli maqsad va manfaatlarga yo'naltirilgan har xil g'oya, qarashlar, uni targ'ibot qilish texnologiyalari ijtimoiy ong va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish maqsadida "jozibador"ligini oshirgan xolda samaradorlikka erishish uchun harakat qiladi. Shu o'rinda, chet davlatlarining kadrlari bilan tenglasha oladigan mutaxassislarni tarbiyalashda va pedagogik jarayonni tashkil etishda xorijiy tajribalardan foydalanish dolzarb ekanligini isbotlash muhim.

Zamonaviy pedagog kadrlar yangi mavqega ega bo'lib, uning vazifasi eng avvalo yoshlarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratilmog'i lozim.

Pedagog bunday maqsadlarda, o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash kerakki, ular yoshlarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallashlari, o'zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo'lishlari lozim.

Kadrlar tayyorlashga ijtimoiy buyurtma, mutaxassisning shaxsiy va kasbiy sifatlari hamda amaliy kasbiy kompetentligini ta'minlashning tarkibi va mazmuni tahlil qilgan holda zamonaviy pedagogni shakllantirishga qo'yiladigan talablar, hamda ushbu talablarni tuzilmasini aks ettiruvchi model ishlab chiqildi. Bunda biz pedagog shaxsini amaliy kasbiy kompetentlikka ega, yuksak darajada madaniyatli, yondash fanlar sohalarini tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish metodlarini puxta egallagan va

Mutaxassisligi bo'yicha amaliy faoliyat yuritadigan, maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis sifatida tavsifladik.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar evolyusion tarzda ta'lim tizimining yangi mazmun kasb etishini ta'minladi, ilg'or g'oyalarni o'zida namoyon etuvchi ta'limiy qadriyatlar shakllandi.

Umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy, kasbiy ahamiyatli qadriyatlar pedagog shaxsini tarbiyalashga xizmat qilishi, uning qadr-qimmatini oshirishi, shaxs omilining ta'lim-tarbiya jarayonlarining etakchi sub'ekti va ob'ekti sifatida tan olinishini ta'minlashi, unda ijodiy fikrlash, shuningdek, ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish konikmasi professional talimning ajralmas qismlaridan biri bolib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Buni dinshunos olim, tarix fanlari nomzodi, katta o'qituvchi Natalya Kireeva "Yoki biz hayotga, yoki imtihonlarga tayyorgarlik ko'ramiz. Birinchisini tanlaymiz." Deb takidlab o'tdi. Yaqinda u mahalliy ta'lim tizimi va printsiplari haqida gapirdi va nima uchun Finlyandiya ta'limi dunyodagi eng yaxshi bilimlardan biri deb qaralishi to'g'risida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibor berish, davlantning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir [Filandiya talim tizimidagi qiziqarli malumotlar]. Shuni ham takidlab o'tishim kerakki, muvaffaqiyatga erishishda yordam berish uchun maktabgacha tarbiya mutaxassislaridan erta bolalik ta'limi jarayonida eng sevimli o'qitish strategiyalari bilan o'rtoqlashishini sorab qolamiz.

Maktabgacha yoshdagi sinf uchun o'qitish strategiyalarining ushbu ro'yxati o'qituvchi sifatida taraqqiy etish va o'rganish uchun juda yaxshi o'tish imkoniyatlarini beradi. Binobarin, barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishga bo'lgan ehtiyoj rivojlanayotgan hamda yangicha ijtimoiy munosabalar qaror topayotgan mavjud sharoitda yanada dolzarb xususiyat kasb etadi.

Xorijiy tilda turli janrdagi (teleko'rsatuv, radio eshittirish, e'lonlar, yangiliklar va h.) audio va video matnlarni eshitib, asosiy ma'nosini tushunib muhokama qila olish; har qanday og'zaki nutqni tinglab tushunish; xorijiy tilda turli hujjatli va badiiy filmlar, tele suhbatlar, tokshoular, spektakllarni tushuna olish; kasbiy va shaxsiy qiziqishiga doir ma'ruzalar, prezentatsiyalar, nutqlarni tushuna olish. Qisqa oddiy qaydlarni va axborotlarni yoza olish, shaxsiy xususiyatga ega murakkab bo'lmagan xatlar eza olish, so'rovnoma, ma'lumot daftarlarini to'ldira olish, tarjimai hol yozish, e'lon va maktublar tuza olish, grammatik va leksik xatolarsiz qisqa bayon va insholar ezish, e-mail, Internet forumlariga xatlar ezish; yozma nutqda matn janriga hamda maqsadiga muvofiq rasmiy eki norasmiy uslubni tanlash; tanish mavzular bo'yicha ma'ruza annotatsiyalari, tezislar yozish har bitta o'qimishli shaxs bilishi kerak va faoliyati davomida qo'llay olishi kerak.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida chet tillarni bilish jahon bozorida vaziyatni xolisona baholashda, korxonalarining iqtisodiyot samaradorligini oshirish borasidagi strategiyasini ishlab chiqishda yordam beradigan muhim axborot mahsulotiga aylanmoqda. Iqtisodchi uchun chet tili amaliy iqtisodiyotning eng zamonaviy yo'nalishlariga yo'l ochadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, chet tilini bilmay turib iqtisodchi bo'lish mumkin emas, chunki iqtisodga oid tushunchalarning aksariyati xorijiy mamlakatlarda rivojlangan.

AQSHda o'qituvchi masalasi o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoning echim yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni u tadqiqotchi yoki maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi. Xorijiy ta'limda so'nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

TYUTOR – (Tutorem-lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

EDVAYZER (advisor)–fransuzcha“avisen”“o'ylamoq”) tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyixalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

FASILITATOR – (ingliz tilida. Facilitator, latincha facilis–yengil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, guruhdagi komunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

MODERATOR – Qabul qilingan qoidalarga amal qilish tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi.

Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o'rin olishda o'zini oqlab kelayotgan ta'lim tizimi mavjud.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga etdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim

shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga etdi.

Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingga etkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamini yanada kengaytirdi.

Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtirilishi bo'ldi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalg aoshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta'lim va fan darajasiga bog'liq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko'proq talablar qo'yimoqda.

Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Kanton Aargou. Fremdsprachen Lernen und Lehren. Englisch an der Primarschule. Leipzig-2017. S. 238—239.

2. Eine neue Aufgaben – und Leistungsbewertungskultur, U. Gibitz in: Neue Wege im Fremdsprachenunterricht am Beispiel des Rahmenplans für den Englischunterricht in der Orientierungsstufe, L. I. S. A. Schwerin 2001.
3. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) – Toshkent: 1995- yil
4. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilmfan (metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
5. G.Anorqulkova, A. Karimov. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.